



PSIXOLOGIYADA BAG'RIKENGLIKNI O'RGANISHGA DOIR NAZARIY YONDASHUVLAR

Abdulxayev A.Q.

Alfraganus university

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: bag'rikenglik, diniy bag'rikenglik, konsepsiya, zamonaviy tadqiqotlar, shaxslararo munosabatlar, fenomen, individuallik, diniy identifikatsiya.

Key words: tolerance, religious tolerance, concept, modern studies, interpersonal relations, phenomenon, individuality, religious identification

Ключевые слова: толерантность, религиозная толерантность, понятие, современные исследования, межличностные отношения, феномен, индивидуальность, религиозная идентификация.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda, bag'rikenglik insonning alohida, o'ziga xos sifatlaridan biri sifatida o'rganib kelinmoqda. Tolerantlikni tenglikni hurmat qilish va tan olish, ustunlik qilish va kuch ishlatishdan voz kechish, insoniy madaniyat, me'yorlar, e'tiqodlarning ko'p o'lchamliligi va turli-tumanligini tan olish, bu turli-tumanlikni bir turlilikka yoki qandaydir nuqtai nazarining ustunlik qilishiga keltirishdan voz kechish A.G. Asmolov va G.U. Soldatova ishlarida o'z aksini topgan. Olimlardan A.V. Petritskiy, A.V. Zimbuli, Yu.A. Ищенко, V.M. Zolotuxin, S.Yu. Golovin, A.G. Asmolov i G.U. Soldatovalar nuqtai nazaridan chidamlilik tolerantlikning tarkibiy qismi bo'lib, tolerantlik o'z navbatida yanada «kengroq» tushuncha, deb hisoblanadi.

Tolerantlik tushunchasiga turli soha mutaxassisleri ta'rif berib o'tganlar. Jumladan, tolerantlik falsafiy ma'noda – lotincha chidam, chidamlilik, toqat qilish, kengfellik ma'nosida «tolerantia» so'zidan olingan bo'lib, falsafada bag'rikenglik, halimlik va xayrihohlik tushunchalarini ifodalaydi.

Psixologik ma'noda tolerantlik bu – individning o'z asab va ruhiy muvozanatini tiklash, muvafaqqiyatli moslashish, adovatga yo'l qo'ymaslik va uni o'rab turgan olam bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida



muammoli va inqirozli vaziyatlarda tashqi muhit bilan faol aloqa qilish qobiliyatini belgilovchi birlashma, integral xususiyat.

«Chidamlilik» va «tolerantlik» tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqishda A.A. Rean fikri qarama-qarshidir. Uning fikricha, tolerantlik psixofiziologik tushunchadir va u biror-bir nomuvofiq omil tasiriga sezuvchanlikning susayishi natijasida unga ta’sirlanishning pasayishini bildiradi. A.A. Rean fikriga ko‘ra, «chidamlilik» tushunchasi tolerantlikni o‘z ichiga oladi va yanada umumiyroq hisoblanadi. Chidamlilik shaxsning turli fikrlarga munosabat, insonlar va voqealarni baholashda oldindan bir fikrga ega bo‘lmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyati deb tushuniladi.

A.A. Rean bag‘rikenglikning umumiy hodisa sifatidagi strukturasi toqatning turli mexanizmlari asosida bir-biri bilan bog‘langan ikki turini ajratib ko‘rsatadi:

1. Shaxsning sensual chidamliligi uni atrof-muhit ta’siriga bardoshliligi bilan bog‘liq va sezuvchanlik pasayishi hisobiga qandaydir salbiy omillarga ta’sirchanlikning kamayishi bilan bog‘liq, bu «chidamlilik-bag‘ritoshlik, chidamlilik-devor».

2. Shaxsning dispozitsion chidamliligi uni atrof-muhitga chidamliligi reaksiyasini tayyorgarligi moyilligi bilan sifatlanadi. Buning orqasida shaxsning muayyn ustanovkasi, voqelikka nisbatan munosabatlarining yig‘indisi, ya’ni «chidamlilik-pozitsiya», «chidamlilik-ustanovka», «chidamlilik-dunyoqarash».

A.V. Petrovskiy va V.V. Yurchuklarning fikricha, bag‘rikenglikni frustratorlar yoki stressorlar mavjud bo‘lgan psixologik barqarorlik sifatida ko‘rish mumkin, qachonki u takrorlanadigan ta’sirga sezuvchanlikni pasayishi natijasida shakllangan bo‘lsa, albatta.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bag‘rikenglik – bu har doim shaxsiy-xissiy xatti-harakatdir. Insonning shunday ruxiy holatini V.S. Solovev ma’naviyat deb ataydi. Bunday taxmin bag‘rikenglikni emotsional-xissiy darajada axloq bilan chambarchas aloqadali haqidagi xulosalar bilan ta’kidlanadi. Bundan tashqari bag‘rikenglik emotsional-xissiy darajada tarixiy hisoblanmaydi, chunki u ko‘pgina xalqlarning madaniy-tarixiy an’nalari mustahkamlanib qo‘yilgan. Haqiqiy bag‘rikenglik kishining ichki ruhiy erkinligi yordamida ta’minladi va u har doim ham tashqi erkinlik bilan muvofiq kelavermaydi.

Bag‘rikenglik fenomenini P.F. Kolmogorov uch xil pozitsiyadan turib tahlil qiladi. Birinchidan, «Men va Sen» ko‘rinishidagi antropologik muammo kontekstida, ikkinchidan, qadriyatlarining muammolarini aksiologik jihatdan, uchinchidan prakseologiya, jumladan muloqat faoliyati jihatidan. Dastlab «Men

va Sen» mavzusi nemis mutafakkiri L. Feyerbax tomonidan ishlab chiqilgan edi. «Alohida inson deb ta'kidlaydi u, qandaydir ajralib turuvchi bo'lib, o'zida insoniylikning axloqiylik va fikrlovchilik mohiyatini aks ettirmaydi. Insoniy mohiyat faqatgina muloqotda, insonni inson bilan birgaligida bo'lib u faqatgina «Men va Sen» farqining voqeligiga tayanishda namoyon bo'ladi». Bunda L. Feyerbax insoniy mohiyat kishiga tabiatdan unga tug'ilishi tufayli berilmaydi, lekin odam naturalizm pozitsiyasidan e'tirof etiladi deb hisoblaydi. M. Buber, L. Feyerbaxdan farqi o'laroq «Men va Sen» munosabatlariga sakral (muqaddas) xususiyat bag'ishlaydi. Uning fikricha bag'rikenglik insonlar bir-birlari bilan muloqat qiladigan kichik jamoalar va guruhlarda kechadigan hayotlari bilan bog'liq bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bag'rikeng inson o'zining betakrorligini «Men va Sen» munosabatlarini anglash orqali qo'lga kiritadi, ya'ni boshqa kishilar bilan o'zaro muloqatga kirishishi tufayli, albatta. Intolerant shaxs esa o'zini boshqalardan ajratadi.

«Men va Sen» muammosi XX asr rus diniy falsafasida boshqacha yo'nalishda tahlil qilingan. N.A. Berdyayev «Men va Sen», «U» dan tashqari «Biz» ning mavjudligini ta'kidlaydi. Lekin «Biz» ikki taraflamalik tabiatiga egadir. Birinchidan, «Biz» bu - ijtimoiy jamoa sifatida tashqaridan har qanday «Men» ga berilgan sifat, ikkinchidan, «Biz» ichki sotsial jamoa va «Men» orasidagi muloqatlardir. «Biz» dastlabki sotsial birlik, «Men» hayotining mazmuni va sifati tariqasida qaror topadi va u nafaqat «Sen» ga nisbatan, balki insoniy ko'plikka munosabatni taqazo etadi.

Mazkur «Biz» ni N.A. Berdyayev ob'ektivlik, muloqot olami deb nomlaydi va u tinchlik, do'stlik, muhabbat, hamfikrlik va murosani o'zida namoyon qiladi. Individ doim o'z yolg'izligidan qutilishga intiladi. S.L. Frank fikricha «Biz» Vatan tuyg'usi, diniy birlik, oila, armiya, cherkov, iqtisodiy ho'jaliklar va h.z.larda insonlarni qamrab oladigan ma'naviy maslakdoshliklaridagi faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Yana uning fikricha «Men» va «Sen» munosabatlari ziddiyatlidir. Bu munosabatlarda salbiy holat ham mavjud bo'lib, u boshqa kishi mening hayotimga aralashyapti, bu hol esa mening shaxsiyatimga xavf paydo qiladi degan xulosada namoyon bo'ladi. Shuningdek pozitiv holat ham uchraydi. Chunki «Men» «Sen» da qardoshlik ruxini topishim mumkin va bunda yolg'izlikdek balodan xolos bo'laman. «Men» va «Sen» munosabatlarining chuqur mohiyati inson barcha hayotiy faoliyatini otionalarning bolalarga, ustozlarni shogirdlariga, e'tiqod qiluvchilarning xudoga muxabbatini boshqarishga yo'naltiradigan universal hodisa – muhabbat



yordamida ochiladi. Mazkur muhabbat boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik, hurmat, hamdardlik va h.z.larda namoyon bo'ladi.

«Men» va «Sen» munosabatlarining shaklida, «Sen» «Men» ning o'ziga xosligining xavf-xatari bo'lib e'tirof etiladi va bu holat intolerantlikni vujudga kelishining sababi bo'lishi mumkin. «Men» va «Sen» munosabatlaridagi o'xshashlik va yaqinlik tolerantlikning shakllanishi va vujudga kelishiga sharoit yaratadi.

Psixolog olimlar bag'rikenglikning qadriyatlarga asoslangan tabiatini ta'kidlab, uni inson axloqi rivoji bilan bog'laydilar. Shunday yondoshuvni S.M. Shalyutin asarlarida ko'rishimiz mumkin. U bag'rikenglikni asrdan-asrga o'tib kelayotgan umuminsoniy qadriyat sifatida tadqiq etadi. Bixiviorizmda bag'rikenglik avvalambor insonning alohida bir hulq-atvori sifatida ko'riladi. Shuningdek, kognitiv yondoshuvda bag'rikenglik asosini bilim va ratsional dalillar tashkil etadi. Ekzistensial-gumanitar nuqtai nazardan qaraganda to'laqonli va puxta bag'rikenglik bevosita anglangan, faxmlangan va ma'suliyatli ijtimoiy hodisadir. S.L. Bratchenko fikricha bunday bag'rikenglik avtomatizm va xarakterlarning oddiy qolip-andozlariga olib kelmaydi, bu – qadriyat va hayotiy pozitsiya bo'lib, ularni konkret vaziyatda amalga oshirish ma'lum bir ma'noga kasb etadi va bag'rikenglik sub'ektidan mazkur ma'noni va ma'suliyatli qarorni izlash talab qilinadi.

Shunday yondoshuv, A.G. Asmolov nuqtai nazaridan qaraganda bag'rikenglik mustahkam qoida yoki iste'mol uchun tayyor retsept sifatida, ayniqsa jazolash uchun majburiy talab emas, aksincha insonning ma'suliyatli tanlovi – hayotga qadriyatli bag'rikenglik asosidagi yogdoshuvi bo'lib xizmat qilishi lozim.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda bag'rikenglik (tolerantlik) muammosining metodologik, nazariy va texnologik ishlanmalari keltirilgan. Gumanistik pedagogika g'oyalari Sh.A.Amonashvili, M.A.Danilova, M.Montesorri, V.A.Suxomlinskiy va boshqalar, hamkorlik pedagogikasi muammolari O.S.Gozman, P.Ya.Galperin, V.V.Davidov, I.P.Ivanov, S.T.Shaskiy, D.B.Elkonin va boshqalar ishlarida o'rganilgan.

Adabiyotlar taxliliga ko'ra, fanda «bag'rikenglik (tolerantlik)» fenomenining shakllanishida asosiy ulushni faylasuflar qo'shishgan bo'lib, ushbu tushuncha ular qarashlarida (odatda sabr-toqatlilik tushunchasi sifatida qabul qilingan) qator boshqa fenomen va sinonim tushunchalar sifatida talqin etilgan. Jumladan, «qalb ombori» (Aristotel), ijtimoiy birdamlilik (Platon), hamjihatlilik darajasi (G.Leybnis), diniy erkinlikni e'tirof etish (Dj.Lokk), ezgulik (I.Kant), o'zigi xoslik mustaqillik va barcha insonlarni birdek ko'rish yoki anglash (rus faylasuflaridan – N.S.Trubetskoy, I.A.Ilin, N.A.Berdyayev, V.Solovev) va

shu kabilar. Zamonaviy falsafa konsepsiyasida bag‘rikenglik (tolerantlik) liberalizm muammolari, milliy o‘xshashlik va ko‘pmadaniyatlik hodisalari bilan bog‘liqlikda o‘rganilgan (M.Uolser, M.B.Xomyakov). Shuningdek falsafa konsepsiyalari doirasida kritik ratsionalizmga kirish asosini tashkil qilish uchun bag‘rikenglik (tolerantlik) chegaralari aniqlangan va bag‘rikenglik (tolerantlik) paradoksi shakllantirilgan (K.Popper).

Rus psixologlaridan B.G.Ananev o‘tgan asrning 60-yillarida bag‘rikenglik (tolerantlik) atamasidan birinchi bo‘lib foydalangan bo‘lsa, bu fenomenning ijtimoiy psixologiyasini ilk marotaba Sankt-Peterburglik olima G.L.Bardier (2007) tadqiq etgan.

Psixologik adabiyotlarda tolerantlik ko‘pincha sotsial munosabatlar yoki sotsial ustanovkalar sifatida ko‘rib chiqilganligiga duch kelinadi. «Tolerantlik noxush yoki begona kishilarga hech qanday ortiqcha zulm ko‘rsatmasdan sabr qilish yoki ularga muruvvat ko‘rsatish usuli deb qayd etiladi» (L. G. Pochebut).

«Tolerantlik o‘zida sub’ektni ob’ektning tashqi belgilari, xulq-atvor xususiyatlari va boshqa ifodalaridagi sotsial madaniy tafovutlarni qabul qilishga shayligini xarakterlovchi tolerantlik sub’ekti bilan ob’ekti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarning ma’lum sifatlarini ifodalaydi» (M. S. Markovskiy). Tolerantlik sotsial ustanovka va uning xulqiy, emo-sional, kognitiv jabhalarini aks ettiruvchi tuzilmasi sifatida qaraladi» (N. V. Nedorezova). «Tolerantlik shaxslar, guruxlar va jamiyatlarning bir- biriga munosabatidagi muloyimlik yoki o‘zaro bir birini qabul qilishini xarakterlaydi» (O.Yu.Xarlamova).

A. V. Persev esa tolerantlikni kognitiv va konativ tomonlarini tadqiq etgan. Uning ta’rificha, tolerantlik nizo, zulm kilishdan o‘zaro tushunish va xamkorlikka o‘tish xolatidir.

G.U.Soldatova esa tolerantlikning psixologik barqarorlik, ijobiy ustanovkalar tizimi, individual si- fatlar to‘plami, shaxslilik va guruxiy qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo‘luvchi to‘rtta asosiy rakursini ajratib ko‘rsatadi.

Tolerantlikning moxiyatini yoritishga doir boshka bir izlanishda ”tolerantlik ongi” fenomen sifatida ko‘rib chiqishga xarakat qilingan.

Shuningdek, tolerantlikni mustaqil yoritishga nisbatan urinishlar xam mavjud. Masalan, ingliz-rus tilidagi psixologik lug‘atda tolerantlikning psixologik mazmuni quyidagicha ta’riflanadi: o‘zlashtirilgan barkarorlik; noaniqlikka barqarorlik; etnik barkarorlik; insonning barqarorlik (chidamlilik) chegarasi; stressga barqarorlik, nizoga barqarorlik; xulqdagi og‘ishlarga barqarorlik.

V.M. Zolotuxin o‘zining «Tolerantlikning ikki konsepsiyasi» asarida «tolerantlik» tushunchasining moxiyatini taxlil qila turib, ijtimoiy xayotning ko‘po‘l- chamliligi bilan xisoblashgan va uni olgan xolda, tolerantlikning



falsafiy mazmunini aniqlaydi. Uning fikriga kura, tolerantlik bir tomondan inson faoliyatini boshqarib turadigan, dunyoqarashning aloxida turini shakllantiradigan axloqiy prinsip bo'lsa, ikkinchi tomondan - ziddiyat va nizolarni samarali xal qilishga imkon beradigan amaliy instrumentdir.

F.A. Brokgauz va I.A. Efronlarning 1909 yilda chop etilgan ensiklopedik lug'atida "tolerantlik", go'yoki o'zgacha diniy dunyoqarashga chidamlilik degan ma'noni anglatadi. V. Dalning lug'atida «chidamlilik» xususiyat yoki sifat, nimagadir yoki kimgadir "faqat rahm-shafqat yoki ko'ngilchanlik tufayli chidashga qodirlik", deb talqin qilinadi. S.I. Ojegovning lug'atida esa, lug'atida insonning bironing fikriga, xarakteriga adovatsiz, sulhparvarlik munosabatida bo'la olish qobiliyatini ifodalovchi chidamlilik so'zi tolerantlik so'zining analogi deb aytiladi. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki "tolerantlik" va "chidamlilik" so'zlari sinonimlardir.

Bu tushunchalar chegaralarini tahlil qilish ya'ni uning mazmuni hajmi, voqelikni aks ettirgan qismini aniqlash, tushunchani aniqlashning boshqa bir muammosidir. Tolerantlik chegaralari to'g'risidagi muammo uni tadqiq qilgan ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan. Masalan, Platon "chidamlilik paradoksi" ni ta'riflagan: chegaralanmagan chidamlilik chidamlilikning yo'qolishiga olib kelishi kerak. Agar chidamsizlarga nisbatan cheksiz chidamli bo'lib, chidamli jamoani chidamsizlardan himoyalashga tayyor bo'linmasa, u holda chidamlilar harob bo'ladilar. Bu muammo bo'yicha K. Popper shunday degan edi: "chidamlilik yo'lida chidamsizlarga nisbatan chidamli bo'lmaslik xuquqini e'lon qilmoq lozim". V.A. Tishkov ta'kidlashicha, tolerantlik – bu hamma narsaga ijozat berilishi va hamma gunohlarning kechirilishi emas, balki tolerantlik intolerantlikning keskin shakllariga nisbatan faol harakatni o'ziga amrab oladi. Tadqiqotchilardan G.U. Soldatova tolerantlik chegaralari muammosini tolerantlik va beparvolik, konformizm, loqaydlik chegaralari muammosi bilan bog'laydi. Chidamlilik va beparvolik – bu bir-birini inkor etuvchi tushunchalardir, ya'ni chidamlilik muholiflik qiluvchi boshqa pozitsiyani, boshqa nuqtai nazarni e'tirof etishni bildiradi. Bunda individ boshqa, ikkinchi fikr bilan hamjihat emas, lekin uning mavjudlik huquqini tan oladi. Tolerantlikni indeferentlik bilan tenglashtirish, boshqani xush ko'rmaslik hissini yengib chiqish zarurligiga olib kelish mumkin, chunki bu holatlar muloqotning - ziyraklik va sherigiga e'tiborlilik, empatiyani namoyon etish, atrofda qilargana nisbatan hayrixoxlik kabi muhim tarkibiy qismlarini nazardan chetda qoldiradi. Tolerantlik passiv emas, u aktivdir.

Tolerantlikni pozitiv tushunishga uning qarama-qarshiligi – o'zining qarashlar tizimi, turmush tarzi, o'zi tegishli bo'lgan guruhi boshqa hammadan



yuqori turishiga qat'iy ishonishga asoslangan intolerantlik yoki chidamsizlikni aniqlash orqali erishiladi. Hozirgi zamonaviy psixologik-falsafiy adabiyotlarda chidamlilik chegaralari haqidagi savol quyidagi sabablarga ko'ra, munozarali muammo bo'lib kelmoqda:

1. Tolerantlik tushunchasi polimodal, hamma qabul qilgan ta'rif mavjud emas.

2. Etik kelib chiqishiga ko'ra "tolerantlik" baholovchi kategoriyadir. Biz o'zimizga, boshqa kishilarga, o'zimizning va boshqalarning hatti-harakatlariga hamma tan olgan pozitsiyalarga mos ravishda baho beramiz. Masalan, muhabbat, rahm-shafqat, hamdard bo'lish va boshqalar hamma tan olgan ijobiy qadriyatlardir. Xoinlik, nafrat, yovuzlik va shu kabilar noma'qul hatti-harakatlardir. Lekin bu qadriyatlar ham yetarlicha mavhumdir, shu tufayli ularga nisbatan chidamlilik chegarasini aniqlash qiyin.

3. Qadriyatlar hamma tomonidan tan olinmagan bo'lsa, chidamlilik chegarasini aniqlash yanada qiyinroq bo'ladi. Evtanaziya, najot uchun yolg'on ishlatish, abort, qaytmas og'ir patologiyali bemorlar hayotini saqlab qolish, jonivorlar ustida tajriba o'tkazish kabi ijtimoiy hodisa va hatti-harakatlarni «yaxshi-yomon» nuqtai nazaridan baholash qiyin.

4. Shaxs uchun muhim bo'lgan qadriyatlar muhokama qilinayotganda tolerantlik chegaralarini aniqlashning aslida imkoni yo'q.

Tolerantlik muammosi murakkab, tolerantlik undan tashqarida o'z ahamiyatini yo'qotadigan va barcha hatti-harakatlar mumkin bo'lgan chegarani uzil-kesil o'rnatadigan yagona yechimga ega emas.

Bu tushunchaga hammasidan ko'ra umumlashtirilgan nuqtai nazar falsafada taqdim etilgan. A.I. Ilin tolerantlikni o'zgarlar fikriga, xulq-atvoriga va e'tiqodiga chidam bilan munosabatda bo'lish deb tushunib, rus pravoslav cherkovi an'analari doimo boshqa diniy e'tiqoddagi kishilarga nisbatan yuqori tolerantlik mavjud, deb hisoblaydi.

Yu.A. Ichenko chidamlilikni «muloqotning amaliy me'yori» deb qaraydi. U chidamlilikni shaxsning o'z-o'zini anglashi borasida ahamiyati orta boradigan, uning esa turmushning keskin o'zgarishlar sodir bo'ladigan vaqtda dolzarbligi ma'lum bo'ladigan umuminsoniy qadriyat deb asoslaydi. V.O. Tishkov fikriga ko'ra tolerantlik shaxsning o'z-o'zini anglashi, uning faoliyat va muloqotda bir butunligi bilan bog'liq. V.O. Tishkov o'zining «Tolerantlik haqida» degan asarida tolerantlik sub'ektini aniqlashga urinib ko'radi. Sub'ekt uchun tolerantlik «tug'ma guruhga oid yoki individual xususiyat emas, balki konstruksiyalashga va ma'lum shaxsiy hamda umumiy qadriyatlar, axloq normalarini amalga oshirishga doimiy va yo'naltirilgan zo'r berib urinishdir».



Milliy chidamsizlik muammolarini hal qila turib, I.B. Gasanov tolerantlikni agressivlikning antipodi, deb ataydi, va neofreydizm vakillari: V. Rayx, K. Xorni, G. Markuze, A. Mitterlix, N. Braun, A. Ballok, E. Fromm asarlariga tayangan holda ushbu shaxsiy sifatlarning ijtimoiy bog‘liqligini asoslab beradi, hamda agressivlik - adovatning, tolerantlik esa – tinchliksevarlikning asosidir, deya xulosa qiladi.

Tolerantlik hissini rivojlantirish ta’lim sohasi uchun bosh maqsadlardan biriga aylanib bormoqda. Aynan shuning uchun ham tolerantlik masalasi so‘nggi yillarda psixologiya va pedagogika fan doiralarida aktual muammoga aylanmoqda. Tolerantlik muammosiga bag‘ishlangan ishlar juda ko‘p, har bir ish o‘zining ahamiyatiga ega, biroq tolerantlik masalalariga oid barcha ilmiy ishlarni ikki katta guruhga ajratish mumkin, bular, nazariy va amaliy ishlanmalar.

Nazariy ishlar orasida falsafiy, madaniy va ijtimoiy xarakterdagilari ustunlik qilsa, amaliy ishlanmalar ichida pedagogik texnika va metodikalar etakchilik qiladi. Bu tabiiy va xatto foydali holat hisoblanadi; biroq muammo nazariy va amaliy ishlanmalar orasida o‘ziga xos «jarlik» ning hosil bo‘lgani va o‘rta oraliqdagi ishlanmalarning yo‘qligida. Ayni shu o‘rinda juda muhim bo‘g‘in – tolerantlikning psixologik tavsifi e’tiborsiz qolib ketmoqda.

E’tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy his-tuyg‘ulariga dahldor muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo‘yilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Birinchidan, fuqarolarning milliy mansubligidan qat’iy nazar qonun oldida tengligi tamoyili. Ikkinchidan, fuqarolarning diniy e’tiqodidan qat’iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi tamoyili. Diniy qadriyatlar millat ma’naviyatining ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur qoidaning amaliy ahamiyati oydinlashadi.

Uchinchidan, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. Irqchilikdan g‘ayriinsoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatilmaganligini alohida qayd etish lozim.

Bag‘rikenglik bo‘yicha xorijiy va mahalliy ishlar shundan dalolat beryaptiki, bag‘rikenglik tushunchasiga umum ma’noli ta’rif berish mushkul bo‘layapti.

Shuningdek, har bir kishining huquq va erkinliklarini tan olish, boshqalar bilan birga yashay olishlik, ular bilan zulm dan yirioq bo‘lgan o‘zarohamkorlikka kirishish, ya’ni dialogga kirishishga tayyor bo‘lish.

Dialog konsepsiyasida shaxslararo bag‘rikenglik shuningdek «shaxsning kommunikativ huquqi» konstruktiv yordamida ochib berilishi va tadqiq etilishi mumkin. Uning yordamida muloqotning psixologik-huquqiy tizimi izohlanib,



u suhbatdoshlar erkinliklari chegarasini shunday belgilab beradiki, bu hol ularning o'zaro hamkorligini bir-birlarini e'tirof etishlari va zulm qilmasliklarini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tolerantlik insonlar, millatlar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar va turli diniy e'tiqodlardagi kishilarni bir-biri bilan bog'lab, ular o'rtasidagi munosabatlarda do'stona muhitning yuzaga kelishini va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi

Adabiyotlar:

1. A.Rasulov, L.Tursunov Religious tolerance as a socio-psychological phenomenon. Tashkent Islamic University Research Center for Islamic Studies. 2015 y.
2. A.I Rasulov, B.N Valiyev Innovative methods of teaching the psychology of religion. "New Age Generation" 2013
3. Lebedova N.M. Teoretiko-metodologicheskiye osnovy izucheniya etnicheskoy identichnosti i tolerantnosti v polekulturnyx regionax Rossii i SNG // Tolerantnost i identichnost: SB. statey. M.: 2002. S. 26.
4. Shkuratova I. Cognitive complexity as the basis of tolerant thinking // Century of tolerance. 2003. №5. S. 44-51.
5. Shlyagina E.I. Ethnic tolerance lichnost: opyt empericheskogo issledovaniya // Vek tolerantnosti. 2001. № 3-4. S. 124-131.
6. Alexander Asmolov. Tolerance as a culture. XXI century. T. : Uzbekistan. 2000
7. Declaration "Principles of Tolerance". T.: 2002. - B.9

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada zamonaviy psixologik adabiyotlarda bag'rikenglik muammosining nazariy va amaliy muammolari turli nazariy yondashuvlarga asoslangan holda muhokama qilingan. Shuningdek, bag'rikenglikka doir klassik va zamonaviy yondashuvlarning konseptual va differensial tahlillari amalga oshirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются теоретические и практические проблемы толерантности в современной психологической литературе на основе различных теоретических подходов. Также был проведен концептуальный и дифференциальный анализ классического и современного подходов к толерантности.

SUMMARY

This article examines theoretical and practical problems of tolerance in modern psychological literature based on various theoretical approaches. A conceptual and differential analysis of classical and modern approaches to tolerance was also carried out.